

YOSHLAR IJTIMOIIY GURUHINING O'ZIGA HOS JIHATLARI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI

Guliston davlat universiteti

Itimoiiy fanlar kafedrası

o'qituvchisi **Abdujalilov Bekzod**

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar ijtimoiy guruhining o'ziga xos xususiyatlari, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va roli tahlil qilinadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi, ma'naviy-axloqiy qarashlari, ta'lim va mehnat sohasidagi ishtiroki orqali jamiyat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi yoritiladi. Uyushmagan yoshlar hisobidan faol yoshlarning sonini o'sish omillari hamda passiv yoshlarni salbiy taraflari yuzasidan fikr yuritgan. Shuningdek, maqolada davlat idoralari va nodavlat tashkilotlari hamkorligida uyushmagan va passiv yoshlarni bunyodkorlik ishlarga jalb qilish mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: uyushmagan yoshlar, passiv yoshlar, faol yoshlar, bozor iqtisodiyoti, moddiy boyliklar, tarbiya, ong, ta'lim tizimi, faollik, intellektual salohiyat, ijtimoiy guruh, ijtimoiy faollik, jamiyat, taraqqiyot, innovatsiya.

Kirish. Yoshlarni jamiyatda tutgan o'rni, yoshi, kasbi, jinsi, yashash hududlari, iqtisodiy sharoitlari va boshqa bir qator qirralari bo'yicha guruhlariga ajratish hamda har birlarining o'ziga xos xususiyatlarini turli fanlar yo'nalishlarida o'rganish davom etib kelmoqda. Bu jarayon bugun va ertaga ham davom ettiriladi. Chunki, ularning hozirgi avlodida mavjud bo'lgan xususiyatlar, keyingi avlodlarida takomillashib boradi, yangi qirralari paydo bo'ladi. Shu bois davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bugungi O'zbekiston yoshlariga katta e'tibor qaratmoqda, ularga ishonmoqda va umid bildirmoqda: «Yurtimiz yoshlari o'rtasida ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat, adabiyot va san'at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohalarida, umuman, barcha jabhalarda jonbozlik ko'rsatib kelayotgan azamat yigitlarimiz ko'p. Ular o'zining jismoniy va ma'naviy salohiyat, iste'dod va mahoratini namoyon etishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish borasida mamlakatimizda ko'p ishlar qilinyapti va kelgusida

ham ularni albatta davom ettiramiz» [3].

Asosiy qism. Yoshlar ijtimoiy guruhi tushunchasi: Sotsiologik nuqtai nazardan yoshlar – bu biologik jihatdan yetilgan, ammo ijtimoiy jihatdan to‘liq shakllanmagan ijtimoiy guruh hisoblanadi. Ular o‘z ijtimoiy mavqeini topish, kasb tanlash, shaxsiy hayotga oid qarorlar qabul qilish davrini boshdan kechiradilar.

Yoshlarning o‘ziga xos jihatlari: Yoshlar quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: **Yangilikka intilish** – innovatsiyalarni tez qabul qilish va joriy etishga moyillik, **Ijtimoiy faollik** – jamiyatdagi o‘zgarishlarga faol munosabatda bo‘lish, **Moslashuvchanlik** – texnologik va madaniy o‘zgarishlarga tez moslasha olish, **G‘oyaviy shakllanish** – dunyoqarash va e’tiqodlarning shakllanish davri.

Yoshlarning jamiyat hayotidagi o‘rni.

Yoshlar jamiyatning turli sohalarida faol ishtirok etadi: **Ta’lim** – zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallab, ilmiy salohiyatni oshirish, **Mehnat bozori** – yangi kasblar va sohalarga kirib kelish, iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qilish. **Ijtimoiy tarmoqlar** – axborot almashinuvi va jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim vosita sifatida ishtirok etish. **Fuqarolik jamiyati** – nodavlat tashkilotlar, volontyorlik harakatlari va ijtimoiy loyihalarda ishtirok.

Davlat siyosati va yoshlar: O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun, Prezidentning tegishli farmon va qarorlari asosida yoshlarning ta’lim olishi, mehnat qilishi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ayni paytda yoshlarning jadal o‘zgarayotgan zamonga mos ravishda o‘zgarishini ham talab etadi. Albatta, yoshlarningg yuqorida keltirilgan o‘ziga xos xususiyatlarini kompleks o‘rganish va tahlil qilish murakkab masaladir. Ana shundan kelib chiqqan holda bu yerda ularning ijtimoiy, moddiy boyliklarni yaratish va ularni iste’mol qilishda kechadigan jarayonlardagi faollik nuqtai nazaridan o‘rganishiga asosiy e’tiborni qaratishga harakat qilamiz. Ularni bu jihatdan quyidagi uch guruhga ajratish mumkin: **uyushmagan yoshlar; passiv yoshlar; faol yoshlar**. Ularning har biriga xos xususiyatlari haqida fikr yuritishdan oldin, bu tushunchalar qanday ma’noni

anglatishini ko'rib chiqishimiz lozim. Shunday qilib, birinchi guruh – uyushmagan yoshlar deganda kimlar nazarda tutiladi – degan savolga javob izlashga harakat qilamiz. “Uyushmagan” yoshlar tushunchasiga bir qator ilmiy adabiyotlarda ta'riflar berilgan. O'zbekistonda 2017 yilning 9-10 avgust kunlari «Yoshlar kelajak bunyodkori» shiori ostida uyushmagan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarda natijadorlikka erishishning ilmiy-amaliy masalalariga bag'ishlangan respublika konferentsiyasi» bo'lib o'tdi. Unda bir qator olimlar, vazirliklar va tashkilotlarning vakillari o'zlarining ma'ruzalari bilan qatnashdilar. Ma'ruzalarda “uyushmagan” yoshlar tushunchasiga ilmiy ta'riflar ham berildi. Jumladan, prof. M.Bekmurodov bu tushunchaga quyidagicha ta'rif berdi: “...uyushmagan yoshlar tushunchasi biror bir joyda rasman faoliyat yuritmaydigan, ta'lim olish bilan shug'ullanmayotgan, muayyan hunar va kasb-kor bilan muntazam band bo'lmagan, davlat va jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llamaydigan, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy sohalarda loqayd va befarq bo'lgan yoshlarni ifoda etadi”[5]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev to'g'ri ta'kidlaganidek, “Biz “uyushmagan yoshlar, uyushmagan yoshlar”, deb ko'p gapiramiz. Lekin bu masalani huquqiy va amaliy jihatdan hal qilishga kelganda, ochiq aytish kerak, ko'pchiligimiz nima qilish lozimligini bilmaymiz”[2]. “Uyushmagan yoshlar” tushunchasiga yuqorida bir qator olimlarimiz tomonidan berilgan ta'riflarga e'tirozimiz yo'q. Ular ham o'zbek ilmiy adabiyotlaridan ommaviy tarzda o'rin olmagan bu tushunchaga o'zlarining ta'riflarini berganlar. Shuning o'zi katta yutuq deyishimiz mumkin, shu bilan birga ularni ham oxirgi aksioma shaklida qabul qilinishi kerak emas. Bu mualliflarning kamchiligi emas, balki jamiyatimizda yoshlarning bu guruhini paydo bo'lishiga sabab bo'lgan omillarni, ularning jamiyat hayotida qanday “nafas” olishiga o'tkazadigan ta'sirini oxirigacha tushunib yetmaganimiz bilan bog'liqdir. “Passiv yoshlar” tushunchasiga ta'rif O'zbekistonda chop etilgan lug'atlarda uchramaydi, hatto ular sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va ijtimoiy fanlar doirasida ham to'liq o'rganilmagan. Nazarimizda buning quyidagi sabablari bor: a) “passivlik”ning mezoni (o'lchovi) yo'qligi; b) uni qaysi omillarga nisbatan qo'llash to'g'ri bo'ladi – degan savollarga aniq

javoblar berishning murakkabligi kabilardir. Yuqorida yoshlarni moddiy boyliklarni yaratishdagi ishtiroklari jamiyat hayotida kechadigan jarayonlarga munosabatlari nuqtai nazardan yoshlarni uch: “uyushmagan yoshlar”, “passiv yoshlar” va “faol yoshlar” guruhlariga ajratgan edik. Uyushmagan yoshlarga bergan ta’rifimizda ularning ishlab chiqarishning ma’lum bir sohasida ishtirok etmayotgan ta’lim tizimining u yoki bu sohasida o’qimayotgan va doimiy ish o’rinlari bilan ta’minlanmagan yoshlarni kiritgan edik. Ana shu ta’rifimizdan kelib chiqqan holda “passiv yoshlar” guruhiga ham ana shu mezonlarni qo’llash mumkin. Ammo “passiv yoshlar”ning “uyushmagan yoshlardan farqi shundaki ular mamlakat hayotida mavjud barcha jarayonlarda qatnashadilar, doimiy ish o’rinlariga ham ega yoki ta’limning u yoki bu yo’nalishida va bosqichlarida ta’lim ham oladilar. Lekin ularning aksariyat ko’pchilik qismi ana shu imkoniyatlarga ega bo’lgan holda, ulardan samarali foydalanish o’rniga “mendan egasiga etguncha”, “menga nima”, “six ham, kabob ham kuymasin”, “kunim o’tsa bo’ldi” kabi qarashlarni o’zlarining hayot kechirish mezoniga aylantirgan yoshlardir. Ular bugun barcha sohalarda uchrab turibdi. Ularda bunday ruhiyatning shakllanishi oiladagi tarbiyada izchillikning yo’qligi, yoshlarni moddiy jihatdan ta’minlagan holda, ularga nisbatan yengil-yelpi qarashlarning mavjudligi, ayni paytda ana shu salbiy holatlar oqibatida ularda o’zlariga ishonmaslik, “bizga bo’laveradi” tamoyili asosida atrof-muhitga nisbatan beparvolik kabilarni hayot kechirish mazmuniga aylantiradilar.

Xo’sh faol yoshlar – deganda kimlarni tushunishimiz kerak?

“Faollik (arab. tez, shiddatli harakat) – shaxsning hayotida ma’lum bir maqsad yo’lidagi ilg’or va intiluvchan xatti-harakatlarni namoyon etishini anglatuvchi tushuncha”[4]. Albatta, bu ta’rifga qo’shilgan holda, unga ma’lum bir qo’shimchalarni kiritishni ham talab etadi. Xususan, “faollik” faqat “maqsad yo’lidagi ilg’or va intiluvchan xatti-harakatlar” bilan cheklanmaydi, balki u maqsadning ijobiy yoki salbiyligi bilan bog’liqdir. Agar maqsad yovuz, insoniyatga tahdid solishga qaratilgan bo’lsa, uni amalga oshirishga qaratilgan xatti-harakatlardagi faollik ham salbiydir. Shu ma’noda faollikni ikki shaklda namoyon bo’lishini, ya’ni ezgulik va taraqqiyotga,

insonlar manfaati yo'lidagi faollik va yovuzlikka, shaxsiy manfaatlar va inqirozga yo'naltirilgan faollikka ajratish to'g'ri bo'ladi. Endi keltirilgan fikrlarimizga asoslanib, “faol yoshlar” deganda, jamiyat hayotining barcha sohalarida mavjud imkoniyatlardan foydalanishga salohiyatini shakllantira olgan, o'zining aniq maqsadlarini ko'zlab, ma'lum bir sohada ishlash, o'qish, kasb-korga ega bo'lgan holda, kundalik hayotida intilishi kuchli bo'lgan, muvaffaqiyatga erishishni o'zining hayot mazmuniga aylantirishga harakat qiladigan yoshlarni tushunish mumkin. Bunday yoshlarni kimningdir, ularni faollashtirishiga ehtiyoji bo'lmaydi, faqat aniq maqsadlarga ishonitirilib va yo'naltirilib turilsa, shuning o'zi kifoya qiladi. Ular nafaqat o'zi shuning bilan birga atrofdagilarni ham faollashtirish qobiliyatiga ham ega bo'ladilar. Albatta, ular hayoti ham har doim silliq ketavermaydi, balki ayrimlarning ba'zan to'siqlarga to'g'ri kelishlari holatlari ham sodir bo'ladi. Ammo, bunday yoshlar ularni engib o'tishga, o'z maqsadlarini amalga oshirishda xech ikkilanmasdan harakat qiladilar. Shuning bilan birga “faol yoshlar”ni “passiv yoshlar”ga aylanib qolish holatlari ham bo'lishi mumkin. Bu qachonki jamiyat hayotida ularga nisbatan beparvo munosabatlar yuzaga kelsa, rivojlanish ko'zlagan maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan harakatlari oldida paydo bo'ladigan to'siqlarni engib o'tishda, davlat, jamiyat tashkilotlari yoki hamfikir tengdoshlari tomonidan qo'llab- quvvatlanishlar bo'lmagan holatlardagina sodir bo'ladi. Shu ma'noda, “faol yoshlar”da ham har doim e'tibor va qo'llab-quvvatlanishiga ehtiyojlari mavjud bo'ladi. Shunday qilib, “uyushmagan yoshlar”, “passiv yoshlar” va “faol yoshlar” tushunchalari mazmun-mohiyati haqida fikrlarimizdan kelib chiqqan holda mavzuimizdagi keyingi muhim masala – ya'ni, “uyushmagan yoshlar”ni ijtimoiy-innovatsion faoliyatga jalb qilishning tahlil etadigan bo'lsak. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qo'yilayotgan masala juda murakkab bo'lib, u nafaqat yoshlarning o'zlariga, shuning bilan birga mamlakatda ularga qaratilgan, aniq ishlab chiqilgan rejalar va ularni izchillik bilan amaliyotga tatbiq qilinishiga, eng asosiysi, ularni faollashtirishga xizmat qiladigan imkoniyatlarning mavjudligiga bog'liqdir. “Uyushmagan yoshlar” paydo bo'lishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi: 1) oilalarda farzandlarda mehnat ko'nikmalarining etarli darajada shakllantirilmaganligi,

ota-onalar farzandlarini yoshligidan mehnatga o'rgatish o'rniga, ular yosh, hali katta bo'lganlarida o'zlari mehnatga o'rganib olaveradi – degan qarashlarning mavjudligi. Buning salbiy holat ekanligi haqida xalqimiz o'rtasida ahyon-ahyonda eslab turiladigan hikoyalar va misollar ko'p. Farzandlarimizni mehnatga, hayotini mustaqil tashkil qilishni ularning yoshligidan o'rgatishimiz kerak. Afsuski, bunday tarbiyani etarli darajada olib bormaganimiz bois, ayrim yoshlar mehnat qilmasdan rohatda yashashga o'rganib ulg'ayadilar. Bu gap mehnat qilish, ta'lim olish, bironta kasb-hunarni egallash imkoniyatlari mavjud bo'lgan sharoitlarida ham ulardan foydalanishni xohlamaydigan yoshlar haqida bormoqda. Afsuski, bunday yoshlar jamiyatimizda bor;

2) ta'lim tizimida yoshlarda aniq maqsadlarni shakllantirish va ularni amalga oshirishga ishonch tuyg'ularini hamda ko'nikmalarini shakllantirishga e'tiborning sustligi ham "uyushmagan yoshlar"ning paydo bo'lishiga o'zining ta'sirini o'tkazadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflardan to maktabni tugatgungacha bo'lgan davrda o'quvchilarda aniq maqsadlar qo'ya bilish va uni amalga oshirishga ishonтира bilish, ma'lum bir kasbga yo'naltirish, mehnat darslarini zamonaviy fan, texnika va texnologiya yutuqlarini joriy qilish orqali tashkil qilishning jadal o'zgarayotgan zamon talablaridan orqada qolayotganligi ham yoshlarda o'zining mustaqil yo'lini tanlash va unga erishish uchun intilishning etarli darajada shakllanishiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Bunday holatda ayrim yoshlar har doim o'ziga ishonmaslik, bironta kasb-xunarni tanlash, yoki oliy o'qiv yurtida o'qishga nisbatan ikkilanish ruhiyati bilan yashashga moyil bo'lib qoladilar. Ular oxir-oqibatda "uyushmagan yoshlar" safini to'lg'azib boradilar;

3) yuqorida ta'kidlaganimizdek, mamlakatning bozor munosabatlariga o'tishi sharoitida sobiq tuzumda mavjud bo'lgan ko'plab ishlab chiqarish korxonalarining yangi sharoit talablariga javob bera olmaganligi bois, ular bekilib ketishi holatlari sodir bo'ladi, yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil qilish uchun mablag' va vaqt talab etiladi. Tabiiy ravishda ularda ishlayotgan yoshlarning o'z ish o'rinlaridan maxrum bo'lib qoladilar, boz ustiga ularni ishlab chiqarishning yangi yo'nalishlarni egallashlari uchun ham mablag' va vaqt talab etiladi. Bunday sharoit yoshlarda ertangi kunga ishonchsizlik ruhiyatining shakllanishiga, kechagina katta

jamoalarda birgalikda faoliyat olib borayotgan yoshlar, tarqalib ketishiga va “uyushmagan yoshlar” saflarining kengayib borishiga olib keladi; 4) aholining tabiiy o’sishi bilan, mavjud yoki yangi tashkil etiladigan ish o’rinlari o’rtasidagi nomutanosiblik, “uyushmagan yoshlar”ning paydo bo’lishining asosiy manbalaridan biridir. Bunday holatning yuzaga kelishiga sabab: a) mamlakatda mavjud resurslardan samarali foydalanish uchun mablag’larning etarli emasligi; b) fan, texnika va texnologiyani ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish orqali bozor talablariga javob beradigan mahsulotni ishlab chiqishga yo’naltirilgan yangi korxonalarni ishga tushirish aholining tabiiy o’sishi ehtiyojlaridan orqada qolishi, “uyushmagan yoshlar” sonining ortib borishiga o’zining ta’sirini o’tkazadi. Agar “uyushmagan yoshlar”ning asosan qishloq yoshlari tashkil qilishini hisobga oladigan bo’lsak, bu erda ham ish o’rinlarini yaratish, fan, texnika, texnologiyadan samarali foydalanish zamon taallblaridan orqada qolayotganligini nazarda tutmog’imiz kerak bo’ladi; 5) davlat, nodavlat va boshqa jamoat tashkilotlarining yoshlarni o’zaro uyushtirib, ommaviy tarzda katta qurilishlarga, foydalanilmayotgan erlarni o’zlashtirishga, “uyushmagan yoshlar”ga kasb- hunarlarni egallashlariga etarli darajada yordamlashmayotganligi ham ularning bugungi kunda sonlarining ortib borishiga sabab bo’lmoqda. Adolat yuzasidan ta’kidlash lozimki, bu borada mamlakatimizda sezilarli darajada ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo, ular ayniqsa qishloq joylarimizda etarli darajada – deb bo’lmaydi.

Xulosa. Endi jamiyat va mamlakat taraqqiyotida yoshlar guruhining qaysi biri ko’proq salbiy ta’sir o’tkazadi? – “uyushmagan yoshlar”mi, yoki “passiv yoshlar”mi? – degan savolga kelsak, ularning har ikkalasi ham o’zlarining salbiy ta’sirini o’tkazadi. Qaysi birining o’zgarayotgan jarayonlarga “moslashuvi” oson kechadi? – degan savolga esa ma’lum ma’noda “uyushmagan yoshlar” – deb javob berish mumkin. Chunki ular o’zlarining “xohishlari” bilan ana shunday holatga tushib qolmaganlar, balki aksariyat yoshlar imkoniyatlarning yo’qligi oqibatida “uyushmagan” holatga tushib qolganlarni tashkil qiladi. Agar ularni uyushtirish bilan bog’liq iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarni ishlab chiqib real hayotga tatbiq qilinsa, ularning o’zaro

uyushishlari, jamiyat hayotining barcha sohalarida, mamlakatda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarida faol ishtirok qilishlari mumkin bo'ladi. "Passiv yoshlar"ni faollashtirish "uyushmagan yoshlarga" nisbatan murakkab kechadi. Chunki, ularda mavjud bo'lgan sharoitda ana shu ruhiyat shakllangan, uni o'zgartirish uchun esa, eng avvalo ongni o'zgartirish kerak bo'ladi. Ong o'zgarmas ekan, ularda yuqorida keltirilgan salbiy holatlarni ham o'zgartirib bo'lmaydi. Ong o'zgartirish esa "uyushmagan yoshlar"ga zarur bo'lgan shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratishdan ham murakkabroq muammodir. Ongni o'zgartirish na iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarni amalga oshirish bilan, shuning bilan birga ruhiyatni, kerak bo'lsa yoshlarning butun ichki ma'naviy-botiniy salohiyatini yuksaltirishni ham taqozo etadi. Yoshlar – jamiyatning kelajagi. Ularning ijtimoiy hayotdagi faolligi, fikr erkinligi, innovatsion fikrlashi orqali har qanday mamlakat taraqqiyotga erishishi mumkin. Shu bois, yosh avlodni qo'llab-quvvatlash va ularning salohiyatini to'liq namoyon etishga yordam berish davlat va jamiyatning muhim vazifasidir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2018 yil 28 dekabr, 3-4 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy etuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir. – "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. – "Xalq so'zi", 2017, 1 iyul.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyotimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz, 1-jild, Toshkent.: "O'zbekisto" NMIU, 2017, 535-b.
4. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009. 578 – 579-b.
5. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. Kapitalizm, sotsializm i demokratiya. M.: "Progress", 2008.
6. Yakovets Yu.V. Epoxalnqeinnovatsii XXI veka.M.: "Ekonomika", 2004.
7. Komilov N. Komil inson –millat kelajagi. Toshkent.: "O'zbekiston", 2001.
8. "Avesto" tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. Toshkent.: "G'oqur

G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2015. 120-b.